



O'RTA ASR MADRASALARINING FAOLIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li

QDPI Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan madrasalar, ularning turlari va ularda o'qitilgan fanlar haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga Amir Temur va Temuriylar davrida barpo etilgan madrasalar, mudarris, tolibi ilmlarning o'qish jarayoni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Madrasa, Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Mirzo Ulug'bek, adno, avsat, a'lo, vaqf.

KIRISH. Madrasalarning ma'naviyatdagi ahamiyatini, odamlarning bu o'quv dargohiga bo'lgan munosabatini ushbu to'rtlikdan oshirib ochib beradigan ta'rif bo'lmasa kerak. "Madrasa" atamasi ham arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, uning o'zak qismi "darasa" – o'rganmoq, o'qimoq, dars olmoq degan ma'noni anglatadi, binobarin madrasa – o'qish joyi, ilm o'rganish joyi deganidir. Madrasa musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurtidir. O'tmishda madrasalarimizda ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Hozir Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan madrasalarda esa diniy xizmatchilar tayyorlanadi. Islomning ilk davrida, VII-IX asrlarda Islom dini ulamolari masjidlarida va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etgan sari ilohiyot masalalarini odamlarga o'rgatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o'quv muassasiga ehtiyoj tug'iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo'la boshladi. Birinchi rasmiy madrasa XI asrning ikkinchi yarmida Bag'dodda Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulk tomonidan, Markaziy Osiyoda esa huddi shu davrda Qoraxoniylar hukmdori Tamg'och Bug'roxon Ibrohim



tomonlaridan Samarqandda qurdirilgan. Madrasalar, shuningdek, yo‘nalishi bo‘yicha ikki xil bo‘lgan:

1. Umumiy diniy ta‘lim madrasalari.
2. Maxsus ta‘lim madrasalari.

Bularda Islom dinining alohida bir jihatlarini kengaytirilgan dastur asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Daloyilxona shular jumlasiga kiradi. Bu o‘quv muassasida ilohiyot, falsafa, islom qoidalarining inkor etib bo‘lmas dalillari o‘qitiladi, shuningdek “Daloil ul-hayrot” (Yaxshi amallarga hujjat) kitobi asosida Muhammad Mustafu (sollallohu alayhi va sallam) ga atab o‘qiladigan salavotlar, mavludxonlik o‘rgatiladi. Madrasa muassislari madrasani ta‘minlash uchun maxsus mulk – vaqflar ajratganlar va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlaganlar. Madrasaga maktabni bitirgan, xat-savodli yoshlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 12 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. Tolibi ilmlar kunduzgi va sirtqi bo‘limlarga bo‘lingan. Kunduzgi bo‘limda yotoqxonaga haqdor bo‘lgan, hujrada yotib o‘qiydigan talabalar va uyidan qatnab o‘qiydigan talabalar; sirtqi bo‘limda esa, turli kasb-kor bilan shug‘ullanadigan, mudarris bilan kelishilgan vaqtlarda kelib tahsil olib ketadigan kishilar o‘qiganlar. Madrasa talabalarining katta qismi hujralarda istiqomat qilganlar. Hujra uchun tag-joy (ijara puli) olinmagan. Ba’zi hujralar madrasa tolibi ilmidan bo‘lmagan kishilar – ijodkorlar, allomalar, xattotlarga ijaraga berilgan yoki muassasa ixtiyori bilan ijara haqisiz berilgan. Bitta hujrada ikkitadan to‘rttagacha tolibi ilm istiqomat qilgan. Hujra sathiga g‘isht yotqizilgan, bir burchakka obrez qilingan. O‘choq ham obrez yaqiniga qurilgan. Ba’zi hujralarga odam bo‘yidan balandroq qilib “soxta shift” yoki “sartokcha” deb ataladigan, shiftga o‘xshash qurilma qurilgan. Mazkur sartokcha omborcha vazifasini o‘tagan va uning ustida ortiqcha ko‘rpa-to‘shak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, oziq-ovqat zaxiralari saqlangan. Sartokcha ustidagi harorat yer sathidagi haroratdan yuqoriroq bo‘lgani uchun ba’zan, qish paytlarida tolibi ilmlar uning ustiga joy to‘shab ham yotganlar. Mashg‘ulotlar, asosan, sentyabr oyidan mart oyigacha davom etgan, hamda yilning qaysi faslida kelishidan qat’iy nazar Ramazon oyida dam berilgan. Vaqf mulklaridan keladigan



daromad hisobidan talabalarga nafaqa berilsa-da, tabiiyki, kifoya qilmagan. Shu boisdan, tolibi ilamlarning bir qismi ta'til oylarida ishlashgan. Haftaning dushanba, seshanba, shanba, yakshanba kunlari tahsil kunlari hisoblangan. Chorshanba va payshanba kuni o'tilgan darslar takrorlangan va mustahkamlangan. Juma esa dam olish kuni hisoblangan. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan, o'rtada nonushta qilinib, peshin namozigacha, tushlikdan so'ng asr namozi paytigacha davom ettirilgan. Madrasada o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Ta'lim 3 bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) guruhlarida olib borilgan. Adno bosqichi "Aqoid" kitobini o'qish boshlanguncha davom etgan, avsat bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishdan boshlab, "Sharhi mullo" kitobini o'rganguncha davom etgan, undan keyingi kitoblar a'lo bosqichida davom ettirilgan. Madrasalar talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil davom etgan. Arab va fors tilidagi kitoblar talabalarga mudarrislar tomonidan sharhlab berilgan. Madrasa o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi arab tili morfologiyasi – "Sarf" va sintaksisi – "Nahv", "Bidon", "Qofiya" darsliklar asosida o'qitilgan. Arab tili grammatikasi so'ng o'quv kursi ikki bo'limga: umumta'lim kursi – "Mushkulot" va fiqh kursi "Masala" bo'limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining "Faroiz" – meros huquqi bilan birga matematika fani ham majburiy o'quv kursiga kiritilgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va madrasalarning mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik asoslari, xattotlik, ahloq, notiqlik kabi fanlar o'qitilgan.

Madrasa binolari musulmon olamida me'morchilik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan gumbazli go'rxona qurilib, unga madrasaga homiylik qilgan kishi dafn qilingan. XIV-XV asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolarini qurish avj oldi. Ularning aksariyati ikki, ba'zan uch qavatli bo'lib, odatda, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona, masjidi bo'lgan. Keyinroq katta



madrasalar yoniga yoki hovlisiga minora qurish rasm bo'lgan. Madrasa binolarining tashqi va ichki qismi turfa rang koshin va ganchkori bilan bezatilgan, Qur'ondan oyatlar va hadislar yozilgan¹.

Amir Temur (1336-1405) – Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni birlashtirib, yagona markazlashgan davlatga asos soldi, uning davrida mamlakat har tomonlama rivojlandi. Ayniqsa, nabirasi Ulug'bek (1409-1449) ilm-fanga har qachongidan ko'proq e'tibor qaratadi. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi uch yil davomida (1417-1420) Registon maydoni kunbotar tominda barpo etilgan. Madrasa ikki qavatli, 54 ta hujradan iborat bo'lgan, har bir hujra qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonadan iborat bo'lgan. Hujralarda jami 100-110 nafar tolibi ilmlar yashagan va tahsil olgan. Bino loyihasi Mirzo Ulug'bek otasi Shohruh Mirzoning saroy me'mori Qavomiddin She'roziy bo'lgan. Shamsiddin Muhammad Havofiy yetakchi mudarris bo'lgan. Madrasa ochilgan kun birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Havofiy o'tgan. Unda 90 nafar tolibi ilmlar qatnashgan va uning ma'nosiga faqat Mirzon Ulug'bek va Qozizoda Rumiylar tushingan. Astronomiyadan darsni Qozizoda Rumiylar o'tgan. O'qish 15-16 yil davom etgan va uni bitirganlarga – sanad (shahodotnoma) berilgan. Madrasa kirish peshtoqi ichki ravoq kitobasi tepa qismida kufiy xatida “Buyulik Allohga xos”, “Kuch-qudrat Allohnikidir” kalimalari yozilgan. Pastida suls xatida “Tavhid” kalimasi bitilgan.² Buxoro shahrida ham madrasa qurilgan bo'lib, 1417-yilda ishga tushgan. Ulug'bek Qurdirgan Z ko'rinishidagi eng qadimiysi. Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarda guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubballi qilib ishlangan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Hovli (26x25 m) atrofida 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli ayvon egallagan. Madrasa (53x41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo'jaz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos. Eshik tabaqalariga arab tilida “Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, degan ibora o'yib yozilgan. G'ijduvondagi madrasa 1432-33-yili pishiq

¹ Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy – Xo'qandi Latif Manoqibi. – T:Movarounnahr.2018. – B.52-54.

² Abdulhad Muhammadjonov – Temur va Temuriylar saltanati. – T:Qomuslar.1994. Toshkent. -B. 115-116.



g'ishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ikkinchi nomi "Fayziya". Darsxona, masjid, kutubxona va 20 ta hujradan iborat bo'lgan. Keyinchalik u vayron bo'lgan va hozirgi ta'mirlangan holatida bir qavatli. Madrasa o'z davrida tolibi ilmlar uchun oliy va o'rta-maxsus bilim yurti hisoblangan³.

Madrasalarda tartib-intizomga alohida e'tibor berilgan. Nizomni buzgan talabaga 3 marta ogohlantirish berilgan, agar yana qoidani buzsa madrasadan haydalgan. Madrasaning ichki hayotiga oid masalalar mutavvali, mudarrislardan iborat hay'at kengashi hal qilgan. Madrasaning moliyaviy masalasi vaqf mulklaridan qoplangan, Alisher Navoiyning "Ixlosiya" madrasasi vaqf maoshi quyidagicha taqsimlangan: - sadr mutavvaliga ajratilgan yillik 3 ming tilla va ovqatlig' uchun 30 yuk g'alla. - har bir mudarrisga yiliga 1200 tilla va 24 yuk bug'doy yoki arpa. Talabalarga to'lanadigan nafaqa: - a'loga 24 tilla va 5 yuk miqdorida don. - avsatga 16 tilla va 4 yuk miqdorida g'alla. - adnoga 3 yuk miqdorida don⁴.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, islom olamida madrasalarning islom madaniyatida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos. Zaminimizdan yetishib chiqqan ko'plab buyul allomat aynan madrasalarda ilm olishgan. Madrasalarda o'qigan talabalar faqat o'qish jarayoni bilangina cheklanib qolmasdan, bo'sh vaqtlarida esa hunar bilan ham shug'ullanganlar. Amir Temur va Temuriylar davrida, jumladan Mirzo Ulug'bek sa'yi-harakatlari tufayli madrasalar faoliyati yangi bosqichga chiqdi, tolibi ilmlarning ahvoli yaxshilandi. Bu esa yangi iste'dodlarning o'sib chiqishiga zamin yaratdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Xonadmir shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy – Xo'qandi Latif Manoqibi. – T.: Movarounnahr.2018
2. Abdulahad Muhammadjonov – Temur va Temuriylar saltanati. – T.: Qomuslar.1994 Toshkent
3. Jabborov I. – Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. – T: O'zbekiston 1999

³ www.wikipedia.uz – sayti ma'lumotlari asosida.

⁴ Jabborov I. – Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. – T: O'zbekiston 1999. -B. 201-203.